

“PAXTAKOR HAYOTI”

20-YANVAR, 2023 YIL

Istiqbolli

E'tirof

SPORTCHILAR MUNOSIB TAQDIRLANDI

Bugun sportchilarga berilayotgan e'tibor xalqaro musobaqalardagi natijalarda o'zini namoyon etmoqda. Jumladan, paxtakorlik sportchilar o'tgan 2022 yilda ko'plab bellashuvlarda faol qatnashib, samarali yutuqlarni qo'lga kiritdilar.

Viloyat hokimligida bo'lib o'tgan yil sportchilarini taqdirlash marosimiga bag'ishlangan yig'ilishga sektor rahbarlari, sport faxriylari, sportchilar, ularning ota-onalari va murabbiylar taklif etildi. Tadbirda so'z olgan viloyat hokimi Ergash Saliev tomonidan hududimiz sportchilarining xalqaro musobaqalarda erishgan yuksak natijalari yana bir bor e'tirof etildi. Shuningdek, joriy yilda sport va sog'lomlashtirish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ham tilga olindi. Shundan so'ng viloyatimiz rahbari vohamiz sport faxriylariga, sport federatsiyasi, sport bo'limi, homiy tashkilot va sektor rahbarlariga hokimlikning tashakkurnoma, va estalik sovg'alarini topshirdi.



Ular orasida xalqaro sport musobaqalarida hududimiz sharafigini munosib himoya qilib kelayotgan Sevinch Isakova, Fotima Musayeva va Sevinch Murodova kabi sportchilarimiz hamda "Yilning eng yaxshi sport maktabi direktori" va "Eng yaxshi murabbiy" nominatsiyalarida g'olib deb topilgan tuman Bolalar va o'smirlar sport maktabining direktori Rustam Qarshiboyev va sport murabbiysi Sevara Musaevlarning borligidan biz ham faxrlanamiz. Sportchilarimizga kelgusi bahslarda zafarlar tilab qolamiz.

SH. MAMIROV.

20.01.2023.